



## SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MUSIQA ILMIGA QO'SHGAN HISSALARI

Qudratova G.A.

Cholg'u ijrochiligi yo'nalishi 2-kurs  
magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7870118>

### ARTICLE INFO

Received: 19<sup>th</sup> April 2023

Accepted: 26<sup>th</sup> April 2023

Online: 27<sup>th</sup> April 2023

### KEY WORDS

"Muallimi Soniy", shohrud, qonun, mizmar, "Shifo kitobi", "Tib qonunlari", "She'r san'ati", shayx, Ash- shayx-us rais, halqum, organ, bosqon, lyutnya, ud, nay, chang, shohruh, qonun.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada sharq mutafakkir olimlari Abu Nasr Forobiy, bn Sino, Muhammad Xorazmiy va ko'plab Sharq olimlarining tibbiyot, matematika Astronomiya, geografiya kabi fanlar dahosi bo'lishlari bilan bir qatorda musiqa ilmi bilan ham shug'ullanib, o'z davr musiqa va san'ati hayotini yorituvchi bebaho asarlar qoldirishgani haqida bayon qilingan.*

X-XI asrlarda Yaqin va O'rta Sharqda musiqashunoslik bo'yicha to'rt muhim asar yaratildi: Forobiyning *الكبير الموسيقى* "Katta musiqa kitobi" Ibn Sinoning *الموسيقى علم جوامع* "Musiqashunoslik ilmi to'plami", Ibn Zaylaning *الموسيقى في لكافي كتاب*

"Musiqaga oid to'liq kitobi" va Abu Abdulloh Xorazmiyning *العلوم مفاتيح* "Ilmlar kalitlari" *الموسيقى في* "Musiqaga oid" atalmish bobi<sup>1</sup>.

Sharqda "Muallimi soniy" deb atalgan Abu Nasr Forobiy sharq musiqa ilmining asoschisidir. "U mantiq, nafs, siyosat, riyoziyot, kimyo, falsafa, musiqaga oid asarlar yozdi...G'arbda Alfarabius deb atalgan Forobiyning Yevropa madaniyatiga ham ta'siri kattadir<sup>2</sup>". Bayhaqiy Forobiyning 4 jildli "Musiqaga oid" asari bor desa, Ibn Abi Usaybia Forobiyning 112 ta asarlarini sanab chiqib, nomlanishiga qarab 10 ta asari musiqa oidligini ta'kidlaydi. Taniqli ingliz tadqiqotchisi, sharqshunos – musiqashunosi H. Farmer esa Forobiyning 11ta sof musiqaga aloqador asarlari bor deb hisoblaydi. Forobiyning eng katta musiqa haqidagi kitobi bu "Musiqaga oid katta risola"sidir. Unda Forobiy musiqaning paydo bo'lishidan tortib, o'z davrining mashhur musiqashunoslari haqida ma'lumot beradi. Forobiy yozadi: "Mashhur musiqa asboblardan biri - shohrud atalmish cholg'udir. Ilgari bu cholg'uni bilmas edilar. U bizning davrimizda ixtiro etildi. Uni ixtiro etgan kishi Samarqandning So'g'd ahlidan Xulays bin Axvaz edi. U (shohrud) tog'lik o'lkada Iskandar taqvimi bo'yicha 1228 yil, Arab taqvimi bo'yicha<sup>3</sup> 306 yil ixtiro etilgan deyiladi Farobiyning kitobida. Shohrud qanday cholg'u ekanligi haqida ortiq ma'lumot yo'q.

<sup>1</sup> Zokirjon Oripov Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar) Toshkent – 2008 yil

<sup>2</sup> Farmer H.G. A History of Arabian music to the XIII th century. London.: Lusac Co.LTD.2 ed 1973. - P. 175.

<sup>3</sup> Arab taqvimi - hijriy yil hisobi. 306 hijriy yil milodiy 919 ga to'g'ri keladi.



Forobiyning kitobida uning chizmasi keltiriladi Chizmaga asosan u qonunga o'xshash musiqa asbobi<sup>4</sup>.

Forobiy tovushlarining xarakteriga ko'ra musiqa asboblari xilma-xil rol o'ynaganini ko'rsatib o'tadi: "Janglarga mo'ljallangan cholg'u asboblari mavjud, ularning ovozi baland va keskin. Ziyofat va raqslar uchun, to'y va quvnoq yig'ilishlar uchun, muhabbat qo'shiqlari uchun ham maxsus cholg'u asboblari bor. Ayrimlarining tovushi keskin va hazin bo'ladi; bir so'z bilan aytganda, ular shunchalik ko'p, shunchalik xilma-xilki, hammasini sanab o'tish qiyin<sup>5</sup>".

Forobiy kitobida sharq musiqasida uchratish mumkin bo'lgan barcha cholg'ularga atroflicha ta'rif-u tavsif berib, ulkan meros qoldirgan desak adashmaymiz. Forobiy turli xil asboblari tovush qatorlarini o'rgana borib, Xuroson tanburiga alohida e'tibor berganining o'zi ham mahalliy musiqa asboblarning ahamiyati katta ekanligidan guvohlik beradi<sup>6</sup>. "Musiqa haqida katta kitob"ning ikkinchi qismida lyutnya, ud, nay, chang, shohruh, qonun kabi cholg'ular ta'rifini keltiradi. Forobiy turli- mizrobli lyutnyani o'sha davrning eng keng taralgan cholg'usi sifatida ta'riflagan. Lyutniya dastasida tovushqator (lad)lar joylashgan bo'lib, IX-X asrlarda ud nomini olgan va bu cholg'u Kavkazorti davlatlarida hozirgacha saqlanib keladi. Olim yana "Tanbur ((dilni tirnash) cholg'usini ham xalq orasida sevib tinglanadiga cholg'u sifatida ta'riflaydi. Forobiy shuningdek, nayni va dunay (mizmar) cholg'usini ham ta'riflab keltiradi. Dunay hozirgi qo'shnay yoki Turkman xalq cholg'usi gosha-dilli tyuy dyuk (qo'sh qamish naychadan tuzilgan cholg') ga o'xshaydi<sup>7</sup>. Forobiy kitobida yozishicha, chang ochiq torlarining tebranishi orqali ovoz hosil qiladigan cholg'ular qatoriga kiradi.

Al-Forobiy o'zining muzika nazariyasiga bag'ishlangan kitoblari Sharqda bu haqda yozilgan asarlarning eng mukammali va eng mashxurlaridan bo'lib, o'zidan o'ldingi davrlarda yashab, ijod etgan muzika olimlari kitoblarining yozilishiga asos bo'lib xizmat qildi. Al-Forobiy yo'lini davom ettirganlardan biri- Abu Ali ibn Sino edi<sup>8</sup>.

Sharq mualliflari Ibn Sinoni ko'proq Shayx, Ash-Shayxu-r-ra'is va Hakim deb hurmatlaydilar. Ibn Sinoning aksariyat asarlari ham "Shayx deydi" yoki "Ash-shayxu-r-ra'is aytadi" yoki "Hakim Ibn Sino dedi" deb boshlanadi. "Shayx" so'zi ko'p ma'nolarga ega, jumladan, oqsoqol, ustoz, yo'lboshchi, dohiy ma'nolarini ham anglatadi. Bizningcha, bu holda shayx - ustoz, Ash-shayxu-r-ra'is - bosh ustoz, Hakim - donishmand deb tarjima qilingani ma'qul<sup>9</sup>.

Ibn Sino yoshligidan musiqa bilan shug'ullangani uchunmi yoki bo'lmasa haqiqatda musiqaning sehrli kuchi mavjudligidanmi, har bir yaratgan asarida musiqa haqida so'z yoki musiqa yoki bo'lim mavjud. Bunga misol qilib, tibbiyotga doir "Tib qonunlari", "Shifo kitobi", she'riyat va tilshunoslikka oid kitoblari "She'r san'ati", "Tovushlarning hosil bo'lish sabalari", "Bilim kitobi", "Donishnoma", "Tomir urish haqida risola" va yana ko'plab asarlarida musiqa

<sup>4</sup> Zokirjon Oripov Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar) Toshkent – 2008 yil

<sup>5</sup> O'zbek musiqa tarixi Madrimov 24- bet

<sup>6</sup> Madrimov Bahrom Xudonazarovich O'zbek musiqa tarixi Toshkent - <<Barkamol fayz media>> – 2018

<sup>7</sup> Odilov A. "O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi.-T.: O'qituvchi, 1995-128 b 8-bet"

<sup>8</sup> I. Rajabov "Maqomlar masalasiga doir" O'zSSR Davlat baliy adabiyot nashriyoti 1963- yil

<sup>9</sup> Zokirjon Oripov Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar) Toshkent – 2008 yil



haqidagi jummalarni uchratish mumkin. Xususan, “Shifo ” kitobining bitta bobi “ Musiqa ilmi to`plami deb atalib”, u olti maqola va 19 faslni o`z ichiga oladi. Har bir faslning nomlanishidan uning qaysi mavzuda so`z borishini bilib olish mumkin. Bu fasllarda inson ovozing hosil bo`lishidan tortib, musiqiy sozlar va ulardagi nag`malar, tovushlar ohangdosh va noohangdoshligi, intervallargacha bayon etib, sharhlangan. “Musiqa ilmi to`plami” ning mundarijasini o`zidayoq musiqaga oid barcha bilimlarni qoplab olganligini ko`rish mumkin.

Musiqa haqida asarlar yozib, izlanishlar olib borgan, Forobiy va Ibn Sino bilan tenglashtiriladigan olim bu Ibn Zayladir. Uning “Musiqa haqida to`liq kitob ” asarida ham hozirgi zamonaviy musiqaning asoslarini ko`rish mumkin. Uning kitobi soda va tushunarli tilda yozilganligi, ixcham va ravonligi bilan ajralib turadi. Ibn Zayla shunday yozadi: “Halqum (inson ovozi) ga, boshqalarga nisbatan ko`proq taqlid qila oladigan, ergasha oladigan musiqa asboblari raba`b - kamonchali asbob, mizma`r - puflama asboblar, udlar, mi`zafa - arfasimon asbob va uning hamjinslari, so`ngra biz eslagan boshqa asboblar..., ammo taqlidning to`liqligida raba`b-kamonchali asbob va surnaylarga yetadigani yo`q<sup>10</sup>”. Ibn Zaylaning kitobida barcha asboblar tavsiflanadi ya'ni, torli, pardali tirnama asboblar: - ud va tanbur; torli, pardasiz nag`malar orasidagi farq dastaning uzun va qisqaligi bilan belgilanuvchi asboblar : sanj va shohrud; torli, pardalarsiz : ayqo; bolg`acha cho`plar bilan urib chalinadigan xitoy changi. Shuningdek usul berib turuvchi sozlar doira, nog`ora, qo`lqarsak kabilar va puflama cholg`ular nay, yaro`a, arg`anun, surnay kabilarni keltirib o`tadi.

Bu davrlarda Ahmad Farg`oniy, Muhammad al- Xorazmiy kabi qomusiy olimlar ham musiqiy risolalar bitganligi tarixdan ma`lum. Xususan, Al- Xorazmiy “Ilm kalitlari ” kitobining 15 bobidan 3 bobini musiqaga bag`ishlagan. Bu kitob barcha sohalar bo`yicha ishonarli manba bo`lib Ibn Sino o`z kitoblarida bu kitobdan ko`plab iqtiboslar keltirgan. Xorazmiy musiqaga bag`ishlangan bobida musiqa cholg`ularining ko`plariga ta`rif keltirib o`tgan. Masalan organ cholg`usining ta`rifi shunday : “Organ – yunonliklar va Rumning (musiqa) asbobi. Buyvol (qora mol) terisidan ishlangan, bir – biriga ulangan katta uch charm mesh – bosqon bo`lib, o`rtadagisining boshiga katta mesh – bosqon o`rnatiladi va unga tuynukchalari ma`lum nisbatda joylashgan mis naychalar mahkamlanadi va ulardan sozanda istagi bo`yicha yoqimli, quvnoq va hazin tovushlar chiqariladi<sup>11</sup>”. Ma`lumki, algoritm fanining asoschisi Muhammad al- Xorazmiy Bog`dod shahridagi “Ma`mun akademiyasi” rahbari bo`lgan. Rivoyatlarda aytilishicha, olimlar orasida shifo uslublari haqida bahs ketganda, shogirdlardan biri Xorazmiyga - “Siz insonlarni davolashda nimani afzal ko`rasiz, dori-darmonnimi yoki jarrohliknimi?” — deb savol bergan ekan. Shunda ustozning “Mening vatanimda ularning ikkalasidan ham musiqaning shifobaxsh kuchini ustun tutadilar”, degan so`zlari tarixga kirib qolgan<sup>12</sup>.

Musiqa va musiqiy sozlar nafaqat qomusiy olimlar kitobida balki har bir davrda yozilgan adabiy asarlarniyam bezab turadi. Xususan Firdavsiy, Jomiy, Navoiy, Ro`dakiy, Sa`diy,

<sup>10</sup> Abu Mansur Al-Husayn Bin Zayla. Musiqa bo'yicha Al-Kafi kitob. Qo'lyozma kitob. Britaniya muzeyi, London, 2361-jild

<sup>11</sup> Zokirjon Oripov Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar) Toshkent – 2008 yil

<sup>12</sup> Madrimov Bahrom Xudoynazarovich O`zbek musiqi madaniyati Toshkent - «Barkamol fayz media» – 2018



Bayhaqiy, Nasimiy, Dehlaviyning asarlarida, gʻazallarida va ilmiy risolalarida musiqa ilmining taʼrif-u tavsifini oʻqishimiz mumkin va bu asarlarda 60 dan ziyod cholgʻu nomlari keltirilgan.

### References:

1. Zokirjon Oripov Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar) Toshkent – 2008 yil
2. Madrimov Bahrom Xudoyazarovich Oʻzbek musiqa madaniyati Toshkent - «Barkamol fayz media» – 2018
3. Odilov A. “ Oʻzbek xalq cholgʻularida ijrochilik tarixi.-T.: Oʻqituvchi, 1995-128 b 8-bet”
4. I. Rajabov “Maqomlar masalasiga doir” OʻzSSR Davlat baliy adabiyot nashriyoti 1963- yil
5. Zokirjon Oripov Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar) Toshkent – 2008 yil